

IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA XIZMATLAR SAVDOSI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, PhD, dotsent.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062130>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan ikki muhim tendensiyalar: xizmatlar ahamiyatining ortib borishi hamda atrof muhit muammolarining dolzarblashuvi o'rtasida bog'liqlik tahlil etiladi. Bu ikki jarayon o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishlari mavjud bo'lib, yashil iqtisodiyot xizmatlar savdo rivojlanishiga yangi imkoniyatlar taqdim etgani holda, ayni paytda savdoning kengayishi qator iqlim o'zgarishi va atrof-muhitn asrash masalalariga yechim topishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: xizmatlar savdosi, ekologiya, yashil iqtisodiyot, ekotizim

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda barcha mamlakatlar uchun kun tartibidan asosiy o'rin olgan masala bo'lib, hukumatlar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va transmilliy korxonalar tomonidan iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishda mazkur omillar ta'siri inobatga olinmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 7 tasi bevosita iqlim va ekologiya masalalariga bag'ishlangani¹ mazkur masalaning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Xizmatlar esa jahon savdosining chorak qismini ta'minlashi, qolgan qismi uchun zaruriy sharoitlar yaratib berayotgani inobatga olinsa, tadqiqoq ikki global dolzarblikka ega mavzularni qamrab oladi.

Tadqiqotchilar tomonidan xizmatlar savdosi va ekologik holat o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganishga qiziqish ortgan bo'lib, bir guruh olimlar xizmatlar savdosi rivojlanishida ekologik omillar ahamiyatini o'rgangan bo'lsa, ba'zilar xizmatlar savdosi kengayishining ekologik oqibatlariga e'tibor qaratgan.

¹ <https://sdgs.un.org/goals>

Zhu Xiaohui va Li Binglin [1] o'z ishida 130 ga yaqin mamlakatlarning 24 yillik ma'lumotlari tahlili asosida xizmatlar savdosining atrof-muhit sifatiga bevosita ijobiy ta'sir etishi, biroq uning bilvosita ta'siri salbiy ekanini aniqlagan. Shuningdek, ushbu ta'sir darajasi mamlakatlar iqtisodiyoti hajmi va rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda farq qilishi mumkin ekani isbotlangan. Mohammad Zohaib va Shankae Ghimire [2] 150 ga yaqin rivojlanayotgan mamlakatlar ma'lumotlari asosida Tovar va xizmatlar savdosi hamda atmosferaga chiqarilayotgan CO₂ miqdori o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil etgan holda, tovarlar savdosining ekologik oqibatlari nisbatan salbiy ekanini aniqlagan. Bundan tashqari, 2019 yilgi tadqiqotlarda Bi Yujiang [3] o'z jamoasi bilan 46 mamlakatlarning ma'lumotlari asosida tovarlar va xizmatlar savdosi o'rtasidagi bog'liqlik bilan bir qatorda ularning ekologik izlari ham tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotning mantiqiy davomi 2022 yilda M.Saeed va Sh.Ghimire hammuallifligidagi maqolada ham ko'rish mumkin [4]. Ushbu ishda rivojlanayotgan 147 mamlakat ko'rsatkichlari asosida xizmatlar savdosi hamda CO₂ tahlil etilgan bo'lib, umumiy savdosi is gazi emissiyasini ortishiga sabab bo'lgan, ayni paytda tovarlar savdosining ta'siri nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Shuningdek qator ishlarda atrof-muhitni saqlash va himoyalashga oid siyosatning xizmatlar savdosi rivojlanishiga ta'siri o'ragnilgan [5] [6].

Xizmatlar savdosi natijaning harakati, talab va taklifning uchrashuv joyidan kelib chiqqan holda 4 xil modul – turga ajratilgan. Mazkur guruhlarining ekologik izlari ham turlicha bo'lib, bu asosan transport, tashish va uzatish bilan bog'liq talablarga bog'liq.

Xizmatlar savdosining atrof-muhit, iqlim bilan bog'liqlik darajasi uning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham bir biridan tafovut qilishi mumkin. Xususan, turizm xizmatlari hajmining ortishi atrof-muhitga inson ta'sirining ortib borishi bilan kechadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, uning ta'siri eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlar uchun ham farq qiladi.

Shuningdek, xizmatlar savdosi iqlim o'zgarishi sharoitida davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosatni amalga oshirishga ham yordam beradi va ushbu siyosat xizmatlar savdosini ham rag'batlantirishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi bilan ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda ham o'zgarishlar bo'lishi lozim ekani bugungi kun haqiqati. Xizmatlar savdosi ushbu o'zgarishlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham bu jarayonni kuzatish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb iqlim muammosi bu suv tanqisligi bo'lib, uning ta'sirini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlarda rejalashtirilmoqda:

1. Suv yetkazib berish samaradorligini oshirish
2. Sug'orish tizimlarini modernizatsiyalash
3. Suvdan foydalanish monitoringini takomillashtirish
4. Suv va undan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi normativ bazani takomillashtirish
5. Suvga ehtiyoji past bo'lgan navlarni yetishtirishni keng targ'ib etish
6. Suv masalalarida o'zaro manfaatlarga asoslangan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Ushbu masalani hal etish uchun amalga oshirilayotgan ishlar qatorida Suvchilar maktabining tashkil etilishi, Jizzax viloyati Paxtakor tumanida yopiq quvurli suv kanallarini qurish, Do'stlik tumanida esa suvdan foydalanish jarayoni monitoring tizimini to'liq raqamlashtirish masalalari mavjud. Bu holat esa rivojlangan mamlakatlardan mutaxassislar, ilg'or korxonalarni jalb etishni talab qiladi. Jumladan, Xitoy², Ispaniya va Turkiya³ mamlakatlardan o'qituvchi va ma'ruzachilar jalb qilinib, mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Jahon Banki tasnifi bo'yicha bu 4 -model shaklidagi xizmatlar savdosining o'sishi hisoblanadi.

² <https://suvchimaktabi.uz/news/141/>.

³ <https://suvchimaktabi.uz/news/108/>.

Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekistonda texnogen omillar natijasida ekologik jihatdan ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan loyiha bu Olmaliq kon metallurgiya kombinati ko‘rsatkichlarini kengaytirish bo‘lib, unda ham rivojlangan mamlakatlardan xizmatlar import qilishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Jumladan, Yevropaning ilg‘or korxonalari ushbu loyihalarda ilmiy ishlanmalari, mutaxassislar vositasida 1 va 4-modellarga mos xizmatlar yetkazib bermoqda⁴.

Xizmatlar savdosi hamda ekologik muammolar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- xizmatlar savdosi kengayishi atrof-muhit ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunda turizm, transport xizmatlarining izlari nisbatan yuqori hisoblanadi.
- xizmatlar savdosi mavjud ekologik muammolar uchun yechim taklif etishi mumkin.
- iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari atrof-muhitni zararlagan holatda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali holatni barqarorlashtirish mumkin.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Monitoringni to‘g‘ri tashkil etish – yechim emas, lekin istalgan turdagi yechimlar samaradorligini oshirish uchun asos hisoblanadi. Atrof-muhit o‘zgarishini miqdoriy xarakterlash imkonini beruvchi, hamda ishonchli va yetarli axborot bilan ta‘minlashga qodir bo‘lgan tizim faoliyati yo‘lga qo‘yilishi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasi, iqtisodiy faoliyat ta‘sirini ta‘qib etish va o‘z vaqtida zaruriy hatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Navbatdagi muhim qadam xizmatlar savdosining yo‘nalishlari va ekologik ta‘sirlari darajasi, xususiyatidan kelib chiqqan holda alohida chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilishi mumkin. Xususan, turistik xizmatlarni tashkil etishda iste‘molchilarning ekologik savodxonligini oshirish, hamda ularning ogohlik, e‘tiborlilik darajasini oshirish lozim. Buning uchun birinchi navbatda asosiy kutib olish punktlari – chegara o‘tkazish punktlari, aeroportlarda turli ma‘lumotlar ulashish

⁴ <https://agmk.uz/oz/news/olmaliq-kon-metallurgiya-kombinatida-4-mis-boyitish-fabrikasi-qurilishi-boshlandi>.

mexanizmini ishlab chiqish lozim. Ikkinchi bosqich esa tur operatorlar hamda turistik xizmatlar taklif etuvchi boshqa turdagi tashkilot va korxonalarning atrof-muhitga nisbatan ma'suliyatini oshirish, litsenziyalashda bu jihatlarga e'tibor qaratish muhim.

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyoti oldida yangi sinovlar paydo etmoqda. An'anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini yangi sharoitlarga tez va samarali moslashuvi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi, xizmatlar savdosi esa ushbu jarayonda jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi tajriba almashinuvini unumli kechishini ta'minlaydi. Shu bilan birga qator mamlakatlar uchun yangi sohalarni yo'lga qo'yish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, iqtisodiy faoliyatning atrof-muhit uchun zararsiz bo'lishi ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Zhu, Xiaohui & Li, Binglin. (2023). Study on The Double Environmental Effects of Trade in Services: Mathematical Analysis of Cross-National Panel Data From 129 Countries. 10.2991/978-94-6463-056-5_13.
2. Saeed, M.Z.; Ghimire, S. (2022) Environmental Effects of Commodity Trade vs. Service Trade in Developing Countries. *Commodities* 2022, 1, 115–126.
3. Bi Yujiang & Alexander, W. & Pei, Zhen. (2019). Factors affecting trade in services: evidence from panel data. *Applied Economics*. 51. 1-10.
4. Saeed, Mohammad & Ghimire, Shankar. (2022). Environmental Effects of Commodity Trade vs. Service Trade in Developing Countries. *Commodities*. 1. 115-126.
5. Sauvage, Jehan & Timiliotis, Christina. (2017). Trade in services related to the environment. *OECD Trade and Environment Working Papers*. 2017.
6. Pantelaiou, Ioanna & Hatzipanayotou, Panos & Konstantinou, Panagiotis & Xepapadeas, Anastasios. (2020). Can Cleaner Environment Promote International Trade? Environmental Policies as Export Promoting Mechanisms. *Environmental and Resource Economics*. 75.